

**INKLYUZIV SINFLARDA ONA TILI FANINI O'QITISHDA  
"O'QUV VA YOZUV VOSITASIDA TANQIDIY FIKRLASHNI  
RIVOJLANTIRISH" TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI**

*Xalimova Shahzoda Farxodovna,  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti  
[h.shahzoda2001@gmail.com](mailto:h.shahzoda2001@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada inklyuziv sinflarda O'quv va yozuv vositasida tanqidiy fikrlashni rivojlanirish texnologiyasining afzalligi haqida so'z boradi. Shu asnodan imkoniyati cheklangan o'quvchilarning dars jarayoniga qulay integratsiyalashishlari ta'kidlanadi. Grafik va rasmlarga asoslangan metodlardan nisbattan voz kechish taklif qilinadi. Kirish qismida mavzuning aktualligi asoslanadi. Texnologiyaning tarixiy tadriji bayon etiladi. Asosiy qismda aniq tanlangan bir mavzu misolida texnologiyaning ikki metodi asosida yoritib beriladi. yakuniy qismda mavzuga doir tavsiyalar asosida xulosa qilinadi.

**Kalit so'zlar.** Inklyuziv ta'lif, integratsiya, o'quv va yozuv vositasida tanqidiy fikrlashning rivojlanishi, ijodiy fikrlash, ko'p qirralilik, asoslilik, samaralilik, individuallik, ijtimoyilik, tahlil, sintez, dalillash, umumlashtirish, da'vat, anglash, refleksiya, 6 shlyapa, sinkveyn, metodlar, nutq uslublari.

**KAPSAYICI SINIFLARDA ANADİL BİLİMİNİN ÖĞRETİMİNDE" ÖĞRETME  
VE YAZMA ORTAMINDA ELEŞTİREL DÜŞÜNCENİN GELİŞTİRİLMESİ"  
TEKNOLOJİSİNİN ÖNEMİ**

*Xalimova Shahzoda Farxodovna,  
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü yüksek lisans öğrencisi*

**Açıklama.** Makale, kapsayıcı sınıflarda çalışma ve yazma ortamında eleştirel düşünmenin geliştirilmesi için teknolojinin avantajından bahsedebilir. Aynı zamanda, engelli öğrencilerin ders sürecine rahatça entegre oldukları belirtilmektedir. Grafiklere ve görsüntülere dayalı yöntemlerin oranından vazgeçilmesi önerilmektedir. Giriş bölümünde konunun gerçekliği esas alınmıştır. Teknolojinin tarihsel çalışması anlatılmıştır. Ana bölüm, açıkça seçilmiş bir konu örneğinde iki teknoloji tekniği temelinde aydınlatılmaktadır. Son bölüm, konuya ilgili önerilere dayanarak sona ermektedir.

**Anahtar kelimeler.** Kapsayıcı eğitim, bütünlleşme, öğretme ve yazma ortamında eleştirel düşünmenin gelişimi, yaratıcı düşünme, çok yönlülük, gerekçelendirme, verimlilik, bireysellik, pozitiflik, analiz, sentez, argüman, genelleme, çağrı, algı, yansıtma, 6 şapka, senkwine, teknikler, konuşma stilleri.

**ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ЧТЕНИЕ  
И ПИСЬМО КАК СРЕДСТВО ПРОДУКТИВНОГО ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО  
ЯЗЫКА В ИНКЛЮЗИВНЫХ КЛАССАХ**

*Халимова Шахзода Фарходовна,  
магистрантка Узбекско-Финского педагогического института*

**Аннотация.** В статье рассматриваются такие проблемы, как преподавание в общеобразовательных школах, где наряду со зрячими учениками обучаются дети с

нарушением зрения. Отмечается роль технологии РКМЧП в интеграции детей с нарушением зрения в общий учебный процесс. Предлагается частичный отказ от методов, основанных на графических изображениях, для результативности интеграции. Во введении обосновывается актуальность темы, даются исторические сведения о становлении технологии. В основной части на примере определенной темы описывается механизм двух методов технологии РКМЧП. В заключительной части делаются соответствующие выводы.

**Ключевые слова.** Инклюзивное образование, интеграция, развитие критического мышления через чтение и письмо, творческое мышление, многогранность, аргументированность, продуктивность, индивидуальность, социальность, анализ, синтез, доказательство, обобщение, вызов, осмысление, рефлексия, метод 6 шляп, Синквейн, речевые стили.

## DEVELOPING CRITICAL THINKING THROUGH READING AND WRITING: A TECHNOLOGY FOR EFFECTIVE NATIVE LANGUAGE TEACHING IN INCLUSIVE CLASSROOMS

*Xalimova Shahzoda Farxodovna,  
master's student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute*

**Abstract.** This article addresses the challenges of teaching in mainstream schools that include students with visual impairments alongside sighted students. It highlights the role of the Critical Thinking Through Reading and Writing (CTRRW) technology in integrating visually impaired children into the general educational process. The article suggests a partial shift away from methods reliant on graphic images to enhance integration effectiveness. The introduction establishes the relevance of the topic and provides a historical overview of the technology's development. The main body describes the mechanism of two CTRRW methods using a specific thematic example. The conclusion draws appropriate inferences.

**Keywords.** Inclusive education, integration, critical thinking through reading and writing, creative thinking, multifacetedness, argumentation, productivity, individuality, sociality, analysis, synthesis, proof, generalization, challenge, comprehension, reflection, Six Thinking Hats method, cinquain, speech styles.

Dars davomida qo'llaniladigan metod va vositalar o'quv jarayonining ruhi va nafasidir. "Ruh ezgu, nafas esa, sof bo'lmoq'i lozim". Zyamil Nigmatov.

To'xtovsiz rivojlanib borayotgan va har sohada muhim o'zgarishlar sodir bo'layotgan, tezlik asri deb yuritiluvchi shu davrimizda ta'lif sohasi ham yuksalish sari jadal suratda ilgarilab bormoqda. Yurtbosimizning tashabbuslari bilan Rivojlangan davlatlarda isbotlangan va joriy etilgan inklyuziv ta'lif tizimining yangi O'zbekistonning ta'lif tizimiga ham qabul qilinishi va bosqichma-bosqich tadbiq etilayotganligi so'zimizning isbotidir.

Inklyuziv ta'lif tizimida darslarni samarali tashkillashtirishda noan'anviy, keng ko'lamli va zamonaviy "O'quv va yozuv vositasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish" texnologiyasini qo'llashimiz maqsadga muvoffiqdir. O'quv va yozuv vositasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi amerikalik olimlar, Charles Temple, Kurt Meredith, Jenni Still, Don Ogl, David Kluster tomonidan ishlab chiqilgan. Tanqidiy fikrlash deganda mualliflar bolada bilimga chanqoqlilikni, ma'lum bir savol borasida o'z nuqtayi nazarining paydo bo'lishi va uni mantiqiy dalillar bilan asoslashni tushunishgan.

Olim Matthew Lipman fikriga ko'ra tanqidiy fikrlash me'zonlarga tayanganligi, o'z o'zini tuzata olishi va nutqda kontekstni izchil kuzatishi sababli to'g'ri mulohazaga olib keluvchi mas'uliyatli fikrlashdir. Tanqidiy fikrlash inson bilan sodir bo'ladigan har qanday hollatdan ijobjiy tajriba qozonishga o'rgatishi sababli samarali, chuqr o'ylangan qarorlar qabul qilishga ko'nikma

hosil ettirishi tufayla mantiqan asosli, har bir holatni keng qamrovli mushohada qilishga yo'naltirganligi uchun ko'p qirrali, ma'lumot bilan ishslashda shaxsiy madaniyatni rivojlantirishi sababli individual, jamoaviy ish olib borilishi tufayli ijtimoiy texnologiya bo'lib, u munozara usuliga asoslanadi. Deya yozgan edi David Kluster. Tanqidiy fikrlash ma'lumotni mantiqiy tahlil etish, yangidan- yangi savollar qo'ya olish, va xilma- xil dalillar keltirish, natijada mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi va tahlil, sintez, isbotlash va umumlashtirish ijodiy fikrlashga tomon qo'yilgan ilk qadam sanaladi.

O'YOVTFR ning darsda qo'llanishidan ko'zlangan maqsad-, aktiv va interaktiv metodlar orqali tanqidiy fikrlashni yo'lga qo'yishdir.

Texnologiya 3 pog'onadan iborat: 1; "Da'vat", 2; "Anglash", 3; "Refleksiya" bo'lib, har bir pog'ona o'quvchilarga ona tilini chuqur o'zlashtirishning zarurligini singdirish vazifasiga xizmat qiladi.

Birinchi - "da'vat" pog'onasining mazmuni- o'quvchilarga mavzu bo'yicha oldindan ma'lum bo'lgan bilimlarni aniqlash, ularning yangi mavzuni o'rganishga bolgan ishtiyoqlarini kuchaytirish, avvaldan aniq va yangi ma'lumotlarni jamlash hisoblanadi.

Ikkinci - "anglash" pog'onasi esa, yangi mavzuni mustahkamlash, o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning ifoda etilishiga harakat qilib ko'riliши va ma'lumotni o'z so'zlar bilan gapirib berishlari bilan farqlanadi.

Uchinchi - "refleksiya" pog'onasida esa, o'quvchilarning dars davomida taqdim qilingan ma'lumotlar asosida qisqa va londa xulosa qilishlari bilan ahamiyatga molikdir.

Har bir pog'ona mazmunidan kelib chiqqan holda o'z metodlariga ega. Biz quyida ko'rib chiqadigan ikkinchi - "anglash" pog'onasiga mansub "6 shlyapa", uchinchi- "refleksiya" pog'onasiga taa'lluqli bo'lgan sinkveyn metodlarining inklyuziv sinflarda qo'llanilishi imkoniyati cheklangan o'quvchining sinfdoshlari bilan bir jamoa bo'lib ishlashi natijasida darsga jalb etish darajasini orttirishga ham xizmat qiladi.

"6 Shlyapa" metodi ingliz psixologi Edvard de Bono tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u mavzuni turli nuqtayi nazarlardan keng mushohada qilishga yo'naltiradi. 10-sinf darsligidagi yirik va muammoli mavzulardan biri bo'lgan "Nutq uslublari" mavzusi misolida metodning ishslashini ko'rib chiqamiz. Metod oltita turli rangdagi shlyapalardan foydalanishga asoslangan bo'lib, har bir shlyapa fikrlashning ma'lum bir uslubini ifodalaydi. Sinf 6 guruhg'a bo'linadi.

Oq shlyapa metoda o'quvchilarda muddatda eslab qolish va qayta so'zlab berish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, oq shlyapali guruh a'zolari dastlabki pog'onada o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotlarni qisqacha bayon etishadi.

Qizil shlyapa o'quvchilarda har bir muammoli mavzuga emotsional-ekspressiv tomonlama yondashishni shakllantiradi. Shu asnoda, qizil shlyapa guruh a'zolari uslublar orasida ularning nazdida ko'proq bo'yoq dor birliklar qo'llanadigan uslubni e'tirof etib, o'z fikrini mustahkam dalillar bilan asoslaydi.

Qora shlyapa mavzudagi qiyinchiliklar, istisno va agar mavjud bo'lsa, kamchiliklarni aniqlay olish ko'nikmasini rivojlantiradi. Binobarin, qora shlyapali guruh a'zolari bir necha uslublar orasidagi o'xshashliklar, ularni to'g'ri tasniflashni muammoga aylantirishini qayd etishadi.

Sariq shlyapa mavzudagi muammolarga optimistic nazar bilan boqishni o'rgatadi. Demak, sariq shlyapali guruh a'zolari, qora shlyapali guruhga muqobil ravishda, yuqorida keltirilgan dalillar, uslublardagi o'xshashliklarni ajrata bilish, tilning nozikligi va boyligini his qilishdan dalolat ekanligini ta'kidlashadi.

Yashil shlyapa metodda kreativ fikrlashga, mavzuga oid yangi g'oyalalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Shu borada, yashil shlyapa a'zolari, o'qituvchi rahnamoligida, uslublarni bir-biridan qanday farqlash haqidagi tajribalari bilan bo'lishishadi va jamlangan tajribalar asosida yangi g'oya taklif qilishga urinishadi.

Moviy shlyapa metodning xulosa qiluvchi elementi hisoblanib, u o'quvchilarda ma'lumotni mantiqiy tartibda qayd etishga va maqsadli savollar berish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan. Shunday ekan, moviy shlyapali guruh a'zolari kichik sind konferensiyasida bayon

etilgan fikrlarni daftarga qayd etishadi va har bir chiqish orasida mavzuni yorituvchi savollar bilan murojaat qilishadi. Ushbu metodga asoslangan kichik konferensiyaga darsning 15-18 daqiqasi ajratilishi ma'quldir. Dars poyoniga yetib borayotgan paytda, texnologiyaning so'nggi pog'onasi kuchga kiradi. Unga binoan, o'tilgan mavzu ixcham shaklda o'quvchilar tomonidan xulosalanadi. Ushbu pog'onada qiziqarli texnologiyaning "Sinkveyn" metodi qo'llanilishi mumkin.

Sinkveyn – "Cenquene" fransuz tilidan tarjima qilinganda "beshinchi" ma'nosini anglatadi. Bu besh qatordan iborat kichik she'r bo'lib, u ma'lumotni qisqa jumlalarda umumlashtirishni talab qiladi. Mazkur shakldagi she'rni XX asr boshlarida Amerikalik shoira- Adelaide Crapsey ishlab chiqqan. Sinkveyn metodi ma'lumotga yakun yasash va keng hajmli materialni qisqa jumlalarga sig'dirish layoqatining yuzaga kelishiga ko'maklashadi. Unga asosan, birinchi qatorda bir so'zdan iborat she'rning obyekti ifodalanadi. (ot so'z turkumi);

Ikkinci qatorda ikki so'zdan iborat obyektning ta'rifi keltiriladi (sifat so'z turkumi);

Uchinchi qatorda obyektning uch so'zdan iborat bo'lgan, harakati ifodalanadi (fe'l so'z turkumi);

To'rtinchi qatorda to'rt-besh so'zdan iborat bo'lgan, obyektni tavsiflovchi, kichik ma'noli jumla tuziladi;

Beshinchi qatorda bir so'zdan iborat bo'lgan, obyektning mazmunini bildiruvchi, yakunlovchi rezyume keltiriladi (ot so'z turkumi).

Quyida mavzu asosida "Sinkveyn" metodi bo'yicha tuzilgan she'r ilova qilinmoqda.

Uslublar

Ilmiy va badiiy.

Farqlanadi, o'rganiladi, qo'llaniladi.

Aniqlig-u hissiyat, rasmiyat-u dalillar posbonlari.

Stilistika.

Ona tili darslarida shu singari innovatsiyon, kreativ va integratsiion texnologiya, metod va vositalarning o'rini qo'llanilishi, o'quvchilarga birgina ona tili fanining o'zini emas, unga yondosh, hatto yondosh bo'lмаган ijtimoiy-gumanitar, aniq va tabiiy fanlarni ham o'rganishlari uchun imkoniyat beradi. Va o'quvchlarning bugungi kunda ta'lim tizimimizda dolzarb mavzuga aylanib ulgurgan fanlarning o'zaro integratsiyasiga oson ko'nikishlarida muhim o'rinn tutadi. Natijada o'quvchilar tanqidiy, ijodiy, mantiqiy, har tomonlama va puxta mulohaza yuritishga moslashadilar. Tevarak-atrofda sodir bo'layotgan voqeа-hodisalarga e'tiborli, kuzatuvchan, Turli muammo va masalalarga emotsiyal-eksprressif jihatdan empatiya bilan yondashish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Texnologiyaning yuqorida ko'rsatilgan metodlari turli grafik va rasmlarga asoslanmaganligi, jamoa bilan birgalikda ishlashga mo'ljallanganligi sababli inklyuziv sinflarda imkoniyati cheklangan o'quvchining jamoaga tez va qulay ko'nikma hosil qilishida alohida ahamiyatga ega.

Quvonarlisi shundaki, Songgi yillarda Prezidentimiz tomonidan O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlash va ularning jamiyatga integratsiyalashuviga ko'maklashishning muhim ahammiyatlarini to'g'risida g'amxo'rlik va kata e'tibor bilan yondashgan holda qator farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, PF-5270-son, 01.12.2017 – "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" - Ushbu Farmon imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni jamiyatga moslashishlari uchun sharoit yaratishga qaratilgan bo'lib, inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish, rivojlantirish va qadamma-qadam tadbiq etish uchun muhim poydevor bo'ldi.

PQ-4860-son, 13.10.2020 – "2020-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" - Ushbu qaror esa, O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, imkoniyati cheklangan bolalarning konstitutsiyaviy ta'lim olish huquqini ta'minlash, ta'lim olish jarayonida barsha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, kamsitishning oldini olish, jamiyatga to'la moslashgan holatda mustaqil hayot kechirish ko'nikmasini shakllantirishga erishish, ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limga xos shart-sharoit yaratish, o'qituvchi kadrlarni imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlay olish uchun maxsus qayta

tayyorgarlikdan o'tkazish, nogironligi bo'lgan bolalarning har biriga individual yondashish va ularning ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'quv dasturlarini moslashtirish, alohida rejalar ishlab chiqish kabi aniq maqsad va vazifalarni jamiyat oldiga qoydi va bu borada davlat siyosatining asosiy yo'naliшlarini belgilab berdi. Shu tufayli ham, o'qituvchining jamiyat va vatan oldidagi mas'uliyati ikki karra ortadi.

Ular endilikda turli grafik chizma, rasmlarga asoslangan metodlardan chekingan holda, inklyuzif sinflarga xos yangi metodlar ishlab chiqishlari maqsadga muvoffiq.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. 10-sinf ona tili darsligi. Toshkent: Respublika ta'lismarkazi, 2022. – B. 11, 15.
2. Бузан Т. Скоростная память. – Москва: М.Эйдос, 1995 – С. 63, 122.
3. Buzan T. Brain training for Kids. – New York: Proactive Press, 2012 – B. 54.
4. Погребная Т., Козлов а., Сидоркина О. Методы изобретения знаний и инновационных проектов на основе ТРИЗ. – Красноярск: ИПК СФУ, 2010. – С. 180.

**Internet manbalarga havolalar:**

5. Alovida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lism-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
6. <https://lex.uz/docs/-5044711/>
7. Murojaat qilingan sana: 24.02.2025.